

MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA SANOAT MAHSULOTLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

RUZMATOV ABDUMALIK ABDUMAJIT O‘G‘LI

BANK MOLIYA AKADEMIYASI MAGISTRANTI

[Tel:+99891-651-99-89](tel:+99891-651-99-89)

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatlar sanoat mahsulotlari eksportini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va ularni qo‘llash tajribalarini o‘rganish milliy eksportni rag‘batlantirish tizimlaridan foydalanishni takomillashtirish yo‘nalishlari, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rni va ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Sanoat, eksport, import, tashqi savdo, boj, iqtisodiy erkinlik, barqarorlik, imtiyoz, xorij tajribasi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются механизмы поддержки экспорта промышленной продукции странами и излагаются направления совершенствования использования национальных систем стимулирования экспорта, а также их роль и значение в экономике страны.

Ключевые слова. Промышленность, экспорт, импорт, внешняя торговля, пошлины, экономическая свобода, стабильность, привилегии, зарубежный опыт.

Annotation. This article describes the mechanisms by which countries support the export of industrial products and the experience of their application, the directions for improving the use of National Export Promotion systems, as well as their role and importance in the country's economy.

Keywords. Industry, export, import, foreign trade, duty, economic freedom, stability, privilege, overseas experience.

Har qanday mamlakatning tadrijiy jihatdan iqtisodiy rivojlanishi muayyan bosqichlarni bosib o‘tishni taqozo etadi. Iqtisodiy jihatdan mustahkam bo‘lmagan mamlakat uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining poydevori sanoatlashish tomon qo‘yilgan qadamdir. Mamlakatimizda sanoat rivojlanishi ko‘plab tarmoq va sohalar taraqqiyotiga zamin bo‘ladi. Mamlakatimiz iqtisodiyotini oqilona tashkil etish iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mintaqalar tabiiy-iqtisodiy va mehnat salohiyatidan samarali foydalanish iqtisodiy mustaqillikka erishish va iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash, mamlakatimiz aholisi turmush darajasini yaxshilashning asosiy shartlaridan biridir.

Eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiy siyosat olib borishda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari uchun keng qamrovli xizmatlarni ko‘rsatadigan ixtisoslashtirilgan davlat, nodavlat yoki xususiy tashkilotlar muhim rol o‘ynaydi. Ko‘pincha eksportga ko‘maklashish funksiyalari ushbu maqsadlar uchun maxsus tashkil etilgan, o‘zining

keng tarmoqli apparati va mustaqil budjetiga ega bo'lgan maxsus davlat idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Ular faoliyati eksportchilarga axborot-maslahat, tashkiliy, marketing va ekspert yordamini, shu jumladan, eksportni rivojlantirishni moliyaviy institutlari (eksport-import banklari, sug'urta kompaniyalari va eksport kreditlarini kafolatlash) bilan o'zaro hamkorlik qilish orqali vazifalarni hal qilishga qaratilgan.

Milliy eksportchilarga o'z mahsulotlarini sotish bozorlarini topishda yordam berish, shuningdek, jahon bozorida qanday tovarlar va xizmatlarga talab mavjudligi to'g'risida ma'lumot berish Agentliklarning asosiy vazifalari hisoblanadi.

O'rganilgan mamlakatlardagi eksportni qo'llab-quvvatlash maxsus idoralarning asosiy faoliyati quyidagilardan iborat:

– mamlakatning ijobiy imijini yaratish (reklama va reklama tadbirlari, shuningdek, eksportyorlarning manfaatlarini himoya qilish);

– eksportyorlarga xizmat ko'rsatish (kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, texnik yordam, import qiluvchi mamlakatlar qonunchiligi va xalqaro standartlar, shuningdek, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati bilan tanishish);

– marketing (ko'rgazma va yarmarkalar, eksportyor va importyorlarning biznes vakolatxonalari, importyor mamlakatda xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xizmatlar);

– eksport bozorlarini o'rganish, maqolalar tayyorlash, milliy va xorijiy eksportyor hamda importyorlar o'rtasida amaliy aloqalarni o'rnatish imkonini beradigan Internet-resurslarini yaratish.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi tovarlar va xizmatlarni eksport qiluvchi korxonalariga xalqaro bozorda yanada raqobatdosh bo'lishiga, xarajatlar va moliyaviy to'lovlarni kamaytirishiga imkon beradi (bu barcha toifadagi tadbirkorlarga ham tegishli).

Tadqiqotlar asosida o'rganilgan rivojlangan mamlakatlarda eksportni qo'llab-quvvatlashning quyidagi tashkiliy vositalari mavjud:

– axborot-maslahat yordami (bozor va marketing tadqiqotlari, yuridik maslahatlar berish va hk);

– o'quv va maxsus axborot-ta'lim tadbirlari (seminarlar, vebinarlar va boshqalar);

– reklama, ko'rgazma va yarmarkalarni tashkil qilish, xorijiy sheriklar bilan biznes aloqalari va hamkorlik aloqalarini o'rnatishga ko'maklashish;

1-jadval

**Rivojlangan mamlakatlarda eksportni qo'llab-quvvatlash
mexanizmlarining qiyosiy tavsifi**

| № | Mexanizmlar | AQSh | Germaniya | Yaponiya | Janubiy Koreya |
|---|-------------|---|--|--|--|
| 1 | 2 | 3 | 5 | 6 | 7 |
| 1 | Huquqiy | Qonunlar va maxsus komissiya nazorati | Qonunlar va federal nazorati | Qonun va maxsus me'yoriy huquqiy hujjatlar | Qonunlar va davlat nazorati |
| 2 | Tashkiliy | Vazirlik, davlat va nodavlat tashkilotlar | Tashqi ishlar vazirligi, Iqtisodiyot va energetika vazirligi | Vazirlik, kengash va turli dasturlar | Davlat agentligi |
| 3 | Moliyaviy | Eksimbank | xususiy banklar konsorsiumi AKA va KFW davlat bank guruhi | Yaponiya xalqaro hamkorlik davlat banki | Koreya savdo-investitsiya rivojlanish agentligi |
| 4 | Ma'muriy | Markazlashgan va xususiy tizim | Federal, mintaqaviy darajada | Markazlashgan davlat boshqaruvi | Markaziy va mintaqaviy |
| 5 | Iqtisodiy | konsalting, moliyaviy vositalar va individual marketing strategiyalarini ishlab chiqish | Marketing, transport subsidiya-lari, maslahat | konsalting va reklama xizmatlari, lobbizm | logistik qo'llab-quvvatlash, imidj va brendni targ'ib qilish |

– «savdo-siyosiy qo'llab-quvvatlash (JST vositalaridan, erkin savdo bo'yicha mintaqaviy va ikki tomonlama kelishuvlardan samarali foydalanishni ta'minlash orqali tashqi bozorlarga kirish imkoniyatlarini yaxshilash, kamsituvchi cheklovlarni bartaraf etish);

– siyosiy-diplomatik qo'llab-quvvatlash (davlat tashriflari, lobbizm, investitsiya loyihalari va eksport bitimlarini qo'llab-quvvatlash, ijobiy biznes imidjini ilgari surish);

– haddan tashqari ma'muriy to'siqlarni olib tashlash».

Rivojlangan mamlakatlarda eksportni zamonaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmi davlat va nodavlat institutlar, shu jumladan, ixtisoslashgan vazirliklar va idoralar, ixtisoslashgan muassasalar va eksport markazlari, moliyaviy institutlar, mintaqaviy va xorijiy hodimlarning o‘zaro hamkorligiga asoslanadi. Fikrimizcha, ushbu mamlakatlar orttirgan boy amaliy tajriba jahon xo‘jaligida globallashtirish jarayonlari shiddat bilan chuqurlashib borayotgan bir davrda har bir rivojlanayotgan mamlakat uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi (1-jadval).

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, rivojlangan mamlakatlarda sanoat mahsulotlari eksportini qo‘llab-quvvatlashning xilma-xil mexanizmlari qo‘llanib kelinmoqda. Ushbu mexanizmlarning aksariyati davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga asoslangan bo‘lib, milliy amaliyotda xorijiy eksport markazlari, mahalliy brendlarni targ‘ib qilish, turli sug‘urta mahsulotlari taqdim etish, mintaqaviy darajada sanoat mahsulotlari eksportini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish kabilarni joriy etish va samarali qo‘llash mumkin. Shu bilan birga, quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- Eksportni rivojlantirish agentliklari va Eksport markazlarini tashkil qilish;
- Eksportni sug‘urtalash tizimi va eksport kredit agentliklari faoliyatini rivojlantirish;
- yangi eksport bozorlarini qidirib topish. Masalan, Hindiston aholi soni bo‘yicha ikkinchi o‘rindagi mamlakat sifatida bozori ancha katta. Navbatdagi mo‘ljal Yaponiya va Janubiy Koreya hisoblanadi. Janubiy Koreya biz uchun strategik savdo hamkori hisoblansada, biz uchun salbiy saldo saqlanib qolmoqda. Yaponiya yiliga salkam 600 milliard dollarlik mahsulot import qiluvchi gigant bozor bo‘lib, yapon bozori qoidalarini yaxshi o‘zlashtirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, eksportga yo‘naltirilgan sanoatlashtirishning mamlakatimiz kabi rivojlanayotgan yoki «kichik iqtisodiyot» lar uchun muvaffaqiyatga erishish vositasi sifatidagi afzalliklari va salbiy jihatlari o‘rganilgan. Mamlakatlardagi aniq iqtisodiy vaziyat va savdo shartining o‘zgarishi sharoitida ushbu strategiyaning ustunliklari va ananaviy eksportning ziddiyatli tomonlarini o‘rganish asosida aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosatining bosqichlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan hamda sanoat tarmog‘ida amalga oshirilgan tarkibiy o‘zgarishlar, shuningdek, sanoat mahsulotlari eksportini rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy infratuzilmalar faoliyati, samarali soliq va bojxona munosabatlarini nazarda tutuvchi mexanizmlar yaratilganligiga qaramasdan ularni takomillashtirish, zamon talablariga moslashtirish zarurligi asoslangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Андреев А. Основы региональной экономики: учебник для вузов. – М.: КноРус, 2012. – 334 с. 2. Положенцева Ю.С., Клевцова М.Г. Трансформация развития промышленного комплекса в условиях цифровой экономики. // Вестник ГУУ. 2021. №
2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/transformatsiyarazvitiya-promyshlennogo-kompleksa-v-usloviyah-tsifrovoy-ekonomiki>.
3. Ветрова Елена Николаевна, Лапочкина Людмила Викторовна. Трансформация промышленного развития на современном этапе развития экономики. // π-Economy. 2016. №
4. (245). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/transformatsiya-promyshlennogo-razvitiya-na-sovremennom-etape-razvitiyaekonomiki>.
5. Курбонов Ж.Қ. Саноатни модернизациялаш Ўзбекистон иктисодиётининг рақобатдошлигини ошириш воситаси сифатида. /